

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 240 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqlonova	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	



OLIY TA'LIM XIZMATLARINI IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTDA TUTGAN O'RNI

Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

"Real iqtisodiyot" kafedrası assistenti

ORCID: 0009-0004-6602-8943

Shaxzodamirzaxadjayeva98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim xizmatlarining mohiyati, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan, adabiyotlarga nisbatan keng yoritilgan. Oliy ta'lim xizmatlari iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini jadal rivojlantirishini, kishilarning hayot tarzini, dunyo qarashini o'zgartirish va boshqarish samaradorligini oshirish usullaridan iborat ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, mehnat resurslari, ta'lim xizmatlari, oliy ta'lim xizmatlari, kadrlar salohiyati, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion faollik, ijtimoiy investitsiya.

Abstract: The article analyzes the essence and socio-economic significance of higher education services, and provides a comprehensive review of the literature. It has been scientifically proven that higher education services are a means of accelerating the development of all sectors and industries of the economy, changing people's lifestyles, worldviews, and improving management efficiency.

Key words: human capital, labor resources, educational services, higher education services, human resources potential, innovative economy, innovative activity, social investment.

Аннотация: В работе анализируется сущность и социально-экономическое значение услуг высшего образования, а также представлен комплексный обзор литературы. Научно доказано, что услуги высшего образования являются средством ускорения развития всех секторов и отраслей экономики, изменениями образа жизни, мировоззрения людей, повышением эффективности управления.

Ключевые слова: человеческий капитал, трудовые ресурсы, образовательные услуги, услуги высшего образования, кадровый потенциал, инновационная экономика, инновационная деятельность, социальные инвестиции.

KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlarini aniqlash, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini bandligini ta'minlash muammolarini tadqiq etish, oliy ta'lim xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tobora kuchayib bormoqda. Oliy ta'lim sohasi muntazam o'sib borayotgan yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan talabni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida yangi innovatsion xizmat turlarini keng joriy etish, bu sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalasi o'ta muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini tubdan yangilash va modernizatsiyalash, ularni innovatsion o'quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarini maqbullashtirish, ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'qitishning yangi innovatsion shakllarini joriy etish, kadrlar mehnatini rag'batlantirish milliy iqtisodiyot soha va tarmoqlarida oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatiga tubdan o'zgarish kiritish imkonini beradi.

Hatto bu borada hukumat doirasida "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Yangi O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bunda OTMlarining maqsadlari talabalarga innovatsion va muammoli masalalarni yecha oladigan oliy ta'lim berishga qaratildi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoniga muvofiq, konsepsiya uzoq muddatli maqsadlar va vazifalarni o'z ichiga olib, oliy ta'limning istiqbolda rivojlantirish



strategiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shunga ko'ra, milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun bir vaqtning o'zida kadrlar salohiyatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalasi dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim xizmatlari va oliy ta'lim xizmatlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish bo'yicha bir qancha xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan. V.Xyuit va Kleyton [1], M. Porter, D. J. Brennan va boshqalarning tadqiqotlari shular jumlasidadir. Ushbu olimlar asosan oliy ta'lim xizmatlarining nazariy asoslarini, uni rivojlantirishning amaliy muammolari tadqiq etgan. Shunday qilib, Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardaev [2], S.S.G'ulyamov, R.X.Ayupov, M.Q.Abdullaev [3], Kamola Abduqadirova, A.T.Tojiboev, Sh. A. Kuldashev va boshqalar mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari, oliy ta'lim xizmatlari sifatiga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini, oliy ta'lim xizmatlarida bozor munosabatlarining shakllanishi, oliy ta'lim xizmati samaradorligi ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan.

V.Xyuit va Kleytonlar fikriga ko'ra, "oliy ta'limning eng muhim manfaatdor tomonlari - ta'lim olayotganlar, kelgusida o'qishi mumkin bo'lganlardir" [3]. Bu fikr haqiqatda o'rinni bo'lib, agar oliy ta'limda talab va o'qishni xohlovchi bo'layoq talabalar bo'lmasa, biz taklif qilayotgan boshqa manfaatdor tomonlarining, ya'ni aloqa o'rnatish mumkin bo'lgan auditoriya ham bo'lmaydi. AQShning iqtisodchi olim M. Porter oliy ta'limni iqtisodiy raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biri sifatida ko'radi. Unga ko'ra, ta'lim xizmatlari orqali yuqori malakadagi kadrlar yetishtirilishi, innovatsiyalar rivoji va iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Avstraliyalik iqtisodchi olim D. J. Brennan oliy ta'lim xizmatlari nafaqat bilim berish, balki iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. U oliy ta'lim tizimini "ijtimoiy investitsiya" deb ataydi, ya'ni oliy ma'lumotga ega bo'lgan fuqaro jamiyatga yanada katta foyda keltiradi.

Yuqorida keltirilgan oliy ta'lim xizmatlari tushunchasiga berilgan ta'riflarga bizning e'tiborimiz shundan iboratki, oliy ta'lim xizmatlari faqatgina ta'lim berish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularning sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lmasdan, balki inson kapitali shakllantirish, bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va uni amalda tadbir etish sifatida ham namoyon bo'ladi.

A.T.Tojiboev fikricha, oliy ta'lim xizmatlari mamlakatning intellektual salohiyatini belgilaydigan asosiy omildir. Tojiboev ta'lim tizimining modernizatsiyasi va sifat ko'rsatkichlarining oshirilishini farovonlik bilan bevosita bog'laydi. Sh.A. Qo'ldoshev oliy ta'lim xizmatlarining bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun ularni innovatsion va texnologiyaviy asosda yangilab borish kerakligini ta'kidlaydi. U, shuningdek, ta'limning mehnat bozori bilan integratsiyasiga urg'u beradi. Kamola Abduqadirova "Oliy ta'lim xizmatlarining rivojlanishi fuqarolarning bandligi, ijtimoiy faolligi va yashash darajasini oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi" deb ta'kidlagan. U bu xizmatlarning farovonlikka ta'sirini tizimli baholashni taklif etadi [4]. Shuningdek, S.S. G'ulyamov, R.X. Ayupov, M.Q. Abdullaevlarning fikrlariga ko'ra, "... hozirgi davrda universitetlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari oldida raqamli iqtisodiyotga o'tish davri vazifalari ko'ndalag bo'lib turibdi: oldindan ma'lum qilingan yo'nalishlar va ixtisosliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlash bilan birga dasturlar to'plamini kengaytirish va talabalar raqamli iqtisodiyot talab qiladigan ko'nikmalarni o'zlashtirishi va bilimlar olishi mumkin bo'lgan zarur sharoitlar yaratish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi." [3].

Ta'lim inson kapitali, shuningdek, butun mamlakatning rivojlanish darajasiga ta'sir qiladigan asosiy omilga aylanmoqda. Bunday rol ta'lim muassasalari faoliyatiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada o'zgartiradi, bu esa o'qitishning yangi usullarini joriy etish, o'quvchilarning ijodiy jarayonga jalb qilish faolligini oshirish, axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish va boshqalar uchun shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ilgari suradi. Ta'lim shaxsning mulki, uning o'ziga o'zi anglash vositasi sifatida tushunilganida, innovatsion ta'limga bo'lgan ehtiyoj tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi ta'lim sohasini rivojlantirish va inson kapitalining raqobatbardoshligini hisobga olgan holda ta'lim xizmatlari bozorini yaratishga olib keladi. Raqobatbardosh iqtisodiyot yuqori professional darajadagi, uni postindustrial jamiyat ehtiyojlariga muvofiq doimiy ravishda takomillashtirib borishga qodir bo'lgan mutaxassislarni talab qiladi, uning asosini bilimlar iqtisodiyoti tashkil etadi. Jamiyat, davlat, mehnat bozorining yangi talablari oliy ta'lim mazmunini o'zgartirishni taqozo etadi, chunki, fan va texnologiya bugungi kunda yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradigan sur'atlarda rivojlanmoqda[5].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda va shu bilan birga boshqa tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirib, oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek, bu sohada davlat-xususiy sherikchilik faoliyatini tashkil etish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish kabi strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi. Bunga erishish uchun oliy ta'lim xizmatlari sifatini yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim xizmatlarining mohiyatini va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga muvofiq xizmat ko'rsatish sohasining tarmoqlari ichida ta'lim xizmatlarining ulushi jami xizmatlar tarkibida kamroq ulushini tashkil etadi. Quyida keltirilgan 1-jadval [6] ma'lumotlari fikrimizning yorqin dalilidir.

1-jadval[6] ma'lumotlari ta'lim xizmatlarining ulushi jami xizmatlar sohasining tarkibida atigi 3,7 foizni tashkil etishini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, ta'lim xizmatlarining inson jamiyati hayotidagi ijtimoiy va iqtisodiy roli bilan belgilanadi.

1-jadval. Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-dekabr).


Xizmatlar turi	Xajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	56174,2	6,9	125,8
Moliyaviy xizmatlar	135509,5	16,5	120,6
Transport xizmatlari	145124,4	17,7	108,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	183314,5	22,4	110,6
Savdo xizmatlari	149599,8	18,3	111,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	20633,1	2,5	113,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	30036,5	3,7	113,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	15778,7	1,9	109,4
Ijara xizmatlari	9707,6	1,2	105,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'minlash bo'yicha xizmatlar	11848,2	1,4	112,3
Shaxsiy xizmatlar	15462,0	1,9	109,3
Jami	818428,3	100,0	112,9

Ta'lim xizmatlari ijtimoiy va ayni bir paytda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega (1-chizma) [6]. Uning ijtimoiy mazmuni mamlakat aholisini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, atrof muhitni obodonlashtirishdan iborat.

Ta'lim xizmatlarning iqtisodiy ahamiyati uning mamlakat aholisining daromadlarini oshirish, turmush darajasini yaxshilash, bo'sh vaqtini ko'paytirish, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va boshqa jihatlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli dastavval ta'lim xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunining nazariy asoslarini chuqur bilish, keng va har tomonlama tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. 1-chizma ma'lumotlaridan shunga o'xshash ko'rsatkichlarni ko'rish mumkin:

2021-yil ta'lim sohasidagi xizmatlar 12102,6 mlrd so'm, 2022-yil 15858,4 mlrd so'm, 2023-yil 24533,1 mlrd so'mni, 2024-yilda esa 30036,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2024-yil yanvar-dekabr oylaridagi ulushi 50,3 foizni tashkil etgan.

Bundan shunga xulosa qilinadiki, ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida ayni oliy ta'lim xizmatlarining ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi oliy ta'lim xizmatlariga bo'lgan e'tiborning yuqoriligidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi 2024-yil yanvar-dekabr.

Ta'lim tizimida yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qilish tizimni isloh qilish maqsadlari va bu maqsadga erishish vositalarini shakllantirish imkonini beradi. Maqsad – ijtimoiy- madaniy yo'nalishni kuchaytirish orqali ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'limning umumiy ta'lim yo'nalishini amaliyotga tatbiq etish. OTMLar ta'lim xizmatlari iste'molchilarining talabini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangilash uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan boshqaruv tizimi va moliyalashtirish mexanizmni qayta tashkil etish ushbu maqsadga erishish vositasi bo'lishi kerak[7].

2025-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 20,0 %, transport xizmatlari 18,8 %, moliyaviy xizmatlar 17,1 %, savdo xizmatlari 16,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 8,1 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 3,8 % ulushni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 11 134,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, 46,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar miqdorini 2-chizmadan kuzatganimizda, eng yuqori ko'rsatkichlarni Toshkent shahri, Samarqand viloyati, Farg'ona viloyatlari tashkil etgan. Ya'ni Toshkent shahrida ta'lim sohasidagi xizmatlar miqdori 1523,9 mlrd so'mni, Samarqand viloyati 14052,5 mlrd so'mni va Farg'ona viloyati 1202,8 mlrd so'mni ko'rsatmoqda. Afsuski, aksariyat hududlarda bu ko'rsatkichlar miqdori juda past. Ayniqsa, Jizzax viloyati, Navoiy viloyati, hamda Sirdaryo viloyatlaridagi ko'rsatkichlar miqdori qoniqarsiz. Vaholanki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanishi, aholi turmush tarzining yaxshilanishi, ishsizlik darajasining pasayishi va shunga o'xshash ko'pgina omillar aynan ta'lim xizmatlarining rivoji bilan uzviy bog'liq.

Ta'lim xizmatlari shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, u bir necha tarmoqlarni harakatga keltiradi hamda tabiiy resurslarni sarflashni deyarli talab etmaydi. Ushbu sohada ham turizm singari yuqori sarmoyaviy multiplikativ samara mavjud. Ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda, ta'lim xizmatlari uchun 1.0 AQSh dollari xarajat qilinsa, 3-6 AQSh dollari daromad keltiradi[1]. Ta'lim xizmatlari iqtisodiyotning o'ta daromadli va uni jadal sur'atlarda rivojlantirishga qodir muhim tarmog'idir. Ta'lim xizmatlari jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ta'lim xizmatlari milliy iqtisodiyotga bir nechta muhim yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, ta'lim turizmini rivojlantirish orqali xorijiy valyuta oqimini ta'minlash, to'lov balansi va yalpi eksport kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash, ikkinchidan aholi bandligini oshirish, uchinchidan kambag'allikni qisqartirish, to'rtinchidan mamlakatdagi ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlanishini jadallashtirish va boshqalar (2-rasm).



Hududlar:	Hajmi, mlrd so'mdaHajmi, mlrd so'mda
Toshkent shahri	1523,9
Samarqand	1405,5
Farg'ona	1202,8
Toshkent shahri	1188,6
Qashqadaryo	1107,7
Namangan	925,6
Andijon	832
Xorazm	805,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	686,1
Buxoro	641,3
Surhondaryo	628,3
Jizzax	394,3
Navoiy	291,5
Sirdaryo	215,3

2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"[8]da belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda har bir oliy ta'lim muassasalarida bugungi mehnat bozori takliflarini tahlil qila oladigan, ish beruvchilar va xorijiy hamkorlar bilan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"[8]da belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda har bir oliy ta'lim muassasalarida bugungi mehnat bozori takliflarini tahlil qila oladigan, ish beruvchilar va xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli shartlar asosida aloqalarni o'rnatishda yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish, mavjud xizmatlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish bugungi kunning talabidir.

Xozirgi kunda oliy ta'lim xizmatlari rivojlantirishning keng yo'llari ustunlik qilmoqda, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilishi kerak bo'lgan boshqaruv muammolarini hal qilish strategiyasini o'zgartirishni talab qiladi. Strategiyaning mavjudligi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xavfni kamaytirishga yordam beradi. Strategiya, agar menejerlar barcha muqobil strategiyalarni ko'rib chiqish uchun to'liq ma'lumotga ega bo'lsa, barcha mumkin bo'lgan oqibatlar va xavflarni tahlil qila olisa, oqilona tahlil va boshqaruv qarorlari mahsulidir. Cheklangan resurslar, mijozlar va iste'molchilarning bekarorligi, raqobat sharoitida ta'lim muassasalari faoliyatining strategiyasini shakllantirish zarurati tug'iladi. Bundan tashqari, ta'lim xizmatlari sohasida davlat va tijorat tuzilmalari oldida bir xil vazifa turibdi - ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun zamonaviy biznes modellaridan foydalangan holda yuqori sifatli "maxsulot" sifatida mutaxassislarni (oliy ta'lim) tayyorlash"[9]. Universitetlarning ta'lim xizmatlarini rivojlantirish maqsadlarini ishlab chiqishda, uning tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, har bir muassasaning ichki qadriyatlarini hisobga olish kerak. Ushbu qadriyatlarga quyidagilar kiradi: moddiy baza, xodimlar jamoasining intellektual salohiyati, ilmiy-texnika bazasi, o'quv-uslubiy muhit va ta'lim texnologiyalari, ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy muhit. Bundan tashqari, ta'lim muassasasining qadriyatlarini oshirish bo'yicha strategik maqsadlarni amalga oshirish uning ichki salohiyatidan samarali foydalanishga asoslanadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimida ta'lim muassasasining intellektual salohiyatidan maksimal darajada foydalanishga xizmat qiladigan boshqaruv texnologiyalarini yaratishni nazarda tutuvchi strategik rejalashtirishni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarining ta'lim xizmatlarini rivojlantirish bevosita yuqori texnologiyalarining rivojlanish darajasi va mutaxassislarni tayyorlash darajasi o'rtasidagi tavofutni bartaraf etish, kadrlar tayyorlash yo'nalishini kengaytirish muammolarini hal etishga bevosita bog'liq. Bunday holda, ta'limda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning organik birikmasi maqsadga muvofiq ko'rinishi. Bunday yondashuv tizimli yondashuv nuqtai nazaridan amalga oshirilgan tashkiliy xulq-atvor nazariyasi, qarorlar nazariyasi, innovatsiyalarni boshqarish elementlarini o'z ichiga olgan boshqaruv nazariyasi konsepsiyasiga asoslanishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilganidek, har bir oliy o'quv yurtining moliyaviy mustaqilligi ta'minlanishini hisobga



olishimiz kerak. Bu esa oliy ta'lim tizimida jiddiy raqobat muhiti shakllanayapti deganini tan olishdan boshqa chora yo'q. Bunday sharoitda har bir oliy o'quv yurti, xususan, davlat oliy o'quv yurtlari o'z faoliyatini qaytadan ko'rib chiqishi, ish beruvchilarning kadrlarga bo'lgan talabidan kelib chiqib, mutaxassislik yo'nalishlarini optimallashtirishni talab etadi. Bunda esa har qanday bozor iqtisodiyoti sharoitida, barcha sohalarga birdek zarur bo'lgan marketing strategiyasi alohida o'rin tutadi. Zero u xoh davlat, xoh xususiy oliy o'quv yurti bo'lsin, bundan qat'iy nazar, raqobatbardosh marketing strategiyasini to'g'ri tanlash ta'lim muassasalari orasida yaratilgan kuchli raqobat muhitida o'zining munosib o'rniga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish mintaqalar va butun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ham yuqori iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki, turli sohaviy yo'nalishdagi korxonalar faoliyatining samaradorligi professional kadrlar tayyorlash darajasiga bog'liq. Binobarin, innovatsiya va tadbirkorlik tamoyillari va usullarini faol hayotga tatbiq etuvchi turli tashkiliy-huquqiy shakldagi ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi, faqat mamlakat iqtisodiy tizimini talabalar talab qilgan mutaxassisliklar bo'yicha mutaxassislar bilan emas, balki tadbirkorlik subyektlariga zarur mutaxassislar bilan ham ta'minlashi kerak. Universitetlarning ta'lim xizmatlari muassasalari faoliyatining samaradorligi bevosita ushbu tuzilmalarning rivojlanishini boshqarish samaradorligiga bog'liq. Shu munosabat bilan ta'lim muassasalari faoliyati va ularni boshqarish tizimlarining samaradorligini baholash - bu ularning faoliyatini yaxshilashda, moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, iqtisodiy salohiyatini oshirishda, rejalashtirish va prognozlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hewitt, F., & Clayton, M. (1999). Quality and complexity lessons from English higher education. *International Journal of Quality & Reliability Management*, 16(9), 838-858.
2. Pardaev M.Q., va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020.256 b.
3. Gulyamov S.S., Ayubov R.X., Abdullaev M.Q. Raqamli iqtisodiyot – kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal, №1, 2020 y. 186-198 betlar.
4. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6624639?ONDATE=01.01.2024%2001>
5. oliy-ta-lim-muassasalarining-ta-lim-xizmatlarini-rivojlantirish-boshqaruvini-takomillashtirish.pdf
6. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. 2024-yil yanvar-dekabr
7. Maxmudov A.A., Saidov M.Xlar Oliy ta'limda investitsiyalar va ulardan foydalanish strategiyalari.
8. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
9. Gavxar Umarovna Radjabova Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlarini rivojlantirish boshqaruvini takomillashtirish Qo'qon davlat pedagogika institute "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <http://oac.dsmi-qf.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>